**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**
**2022/2023 O‘QUV YILI 3 - YIG‘ILISH**
**BAYONI**

**2022-yil 5 - oktabr** | **Buxoro shahri**
**Katta yig‘inlar zali** | **soat 9:00**

**Raislik qildi:** **O.X. Xamidov** – kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.

**Ishtirok etganlar:** **M.A.Tursunov** – o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
BuxDU kengashi a’zolari umumiy soni: 77 nafar
Qatnashdi: 70 nafar kengash a’zosi va taklif qilinganlar (ro’yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2022-2023 o‘quv yilining 3-yig‘ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

**Tashkiliy qism:** **Tabrik**

Kengash a’zolari va universitet jamoasini 1-sentabr Mustaqillik kuni bilan tabriklash

Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi O.X. Xamidov Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilar hamda turli tanlov g‘oliblari taqdirlandi.

**Kengash o‘z ishini davom ettirdi.**

Kengash raisi bugungi 3-kengash yig‘ilishida 77 nafar kengash a’zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 7 nafar kengash a’zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma’lum qilib, yig‘ilishni ochish to‘g‘risidagi masalani kengash a’zolari hukmiga havola etdi. Kengash a’zolari yig‘ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma’qullashdi.
Shundan so‘ng, kengash kun tartibi o‘qib eshittirildi.

Kengash o‘z ishini davom ettirdi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:**
***Ma’ruzachi:* Rektor O.X. Xamidov**

**II. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:**
**2.** Universitet talabalar turar joylariga va xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirishni tashkil etish to‘g‘risida
***Ma’ruzachi:* Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor A.A. Amonov axboroti**

**III. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:**
**3.** Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risida
***Ma’ruzachi:* O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev axboroti**

**IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini yo‘nalishi bo‘yicha:**
**4.** Universitetda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish, ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish, universitet xodimlari va professor-o‘qituvchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy savodxonligini oshirish to‘g‘risida

*Ma'ruzachi:* **Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Y.Qulliyev axboroti**

**V.Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha:**
**5.1.** 2021/2022 o'quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko'rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risida.
**5.2.** "2021-2022 o'quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o'qituvchilarga chora ko'rish to'g'risida.
*Ma'ruzachi:* **TSNQB boshlig'i Z.Nurov**

**VI. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**
**6.** Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risida
*Ma'ruzachi:* **Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'lim boshlig'i G. Zaripov axboroti**

**VII. Turli masalalar.**
**7.1.** Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to'g'risida
**7.2.** Ilmiy ijodiy ta'til berish haqida
**7.3.** "Ayniy vorislari" xalqaro elektron jurnalini ta'sis etish to'g'risida.
**7.4.** Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), I.I. Bakayev rahbarligida tayyorlangan "Birinchi o'zbek generali S.Raximov xotirasiga bag'ishlangan milliy video o'yin yaratish" mavzudagi innovatsion loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e'loni uchun tavsiya etish to'g'risida.
*Ma'ruzachi:* **Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'lim boshlig'i G. Zaripov axboroti**

**7.5.** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida
*Ma'ruzachi:* **O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev axboroti**

**7.6.** BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi akademik litsey pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to'g'risida
*Ma'ruzachi:* **BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori B. Adizov axboroti)**

**7.7.** Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023 o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to`g`risida
*Ma'ruzachi:* **Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani H.T. Aritikova**

**7.8.** Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha
**7.9.** 2022-2023 o'quv yilida ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash to'g'risida
*Ma'ruzachi:* **Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayev**

**7.10.** "Bukhsu Scientific Biotechnology" unitar korxonasi Nizomini tasdiqlash to'g'risida
**7.11.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi **"2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha**

**tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi PQ-307-sonli qarori **7-ilovasi 13,14 va 15-bandida** keltirilgan loyihalar bajarilganligi hamda olingan natijalar amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risida
***Ma’ruzachi:* Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripov**

**7.12.** Ish jarayonida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida

Kengash raisi kun tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkinligini ma’lum qilib, kun tartibini tasdiqlab berishni ovozga qo‘ydi. Kengash a’zolari kun tartibini bir ovozdan ma’qullashdi hamda masalalar muhokamasi reglamenti belgilab olindi.

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.
**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to‘g‘risida taklif bo‘ldi. Uni ovozga qo‘yaman.

Tarafdorlar 74 nafar
Qarshilar – yo‘q.
Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

**I.Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:**

**1. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 19 sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi mazmun-mohiyati to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov (**kengash raisi, rektor) kengash a’zolariga Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 19-sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi mazmun-mohiyati to‘g‘risida axborot berdi.

Turizm drayver sohalardan biri sifatida belgilanib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu yil turizm pandemiyadan keyin qayta tiklanyapti. Sentabrgacha yurtimizga kelgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravarga ko‘paydi. Yil boshidan buyon turizm eksporti hajmi 926 million dollar bo‘ldi. Yurtimizga kelgan mehmonlarning sayohati o‘rtacha 4-5 kungacha, sarflagan mablag‘i 305 dollargacha ko‘paydi.

Shuningdek, suv omborlari, o‘rmon xo‘jaligi yerlarini o‘rganib, xavfsiz yerlarda turistik zonalar tashkil etish mumkinligi qayd etildi. Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Farg‘ona va Xorazmning cho‘l hududlarida “safari” turizmini rivojlantirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Yana bir salohiyatli yo‘nalish – ziyorat turizmi. Mamlakatimizda 1 ming 200 dan ziyod ziyoratgoh bor. Yig‘ilishda bu imkoniyatni to‘liq ishga solib, yiliga kamida 1 million sayyoh jalb qilish mumkinligi ta’kidlandi.

Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va arab mamlakatlaridan aviareyslarni ko‘paytirish, malakali gidlar tayyorlash, ziyoratgohlar sharoiti va yo‘llarini yaxshilash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

**Prezident Shavkat Mirziyoev 26 sentabr kuni elektrotexnika sanoatidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.**

Sanoatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya natijasida elektrotexnika tarmog‘i ham o‘zgardi. Oxirgi besh yilda ishlab chiqarish hajmi 4,5 baravar o‘sgan.

Tahlillarga ko‘ra, jahon bozorlaridagi vaziyat ikki yilda eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, yurtimizda 1 milliard 300 million dollarlik import bozori bor. Bu imkoniyatlardan munosib ulush olish uchun mahsulot, avvalo, sifatli va taniqli bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizda va atrofimizdagi bozorlarda yarim o‘tkazgich va elektron platalarga talab 6 milliard dollarni tashkil etadi. Shu bois bunday korxonalarni ko‘paytirish, elektronika va mikroelektronika yo‘nalishida ilmiy, tajriba-konstruktorlik va startap loyihalarni moliyalashtirish vazifasi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 9 sentabrdagi farmoniga muvofiq, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish bo‘yicha dastur qabul qilindi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Yuqoridagi topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida yo‘nalishlar bo‘yicha ma’sullarga tegishli vazifalar berildi

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Kengash raisi O.X. Xamidovning Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 19-sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida ko‘rilgan masalalar haqidagi ma’lumotlar barcha kafedra professor - o‘qituvchilariga ma’lumot tariqasida yetkazilsin.

Tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha “Mamlakatimizda ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi”dagi vazifalar ijrosini ta’minlashga oid-chora tadbir dasturi ishlab chiqilsin. (muddat 3 kun)

3. Ushbu qaror ijro nazorati fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

---

## II. YOSHLAR MASALALARI VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR YO‘NALISHI BO‘YICHA:

### 2. Universitet talabalar turar joylariga va xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirishni tashkil etish to‘g‘risida

**ESHITILDI: A.A. Amonov (**Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor) kengash a’zolariga Universitet talabalar turar joylariga va xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirishni tashkil etish to‘g‘risida axborot berdi.

Universitetda **7 ta** talabalar turar joylari mavjud bo‘lib, 2022/2023-o‘quv yilida sig‘im quvvati **2609 ta o‘rin** joyga **jami 2234 nafar** talabalar joylashtirildi. Hozirgi kunda **375 ta bo‘sh o‘rin** mavjud. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish maqsadida talabalar o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

Talabalarni TTJga joylashtirish uchun www.uniwok.buxdu.uz elektron platformasi orqali arizalarini qabul qilish tartibi belgilanadi. Unga ko‘ra TTJga ehtiyoji bor talabalar fakultet rahbariyatiga yozma murojaat etmasdan turib masofadan ariza berish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Buning oqibatida talabalarning tartibsiz to‘planishini oldi olindi.

Talabalar turar joyiga joylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq ariza bergan talabalarning ariza universitetda tashkil etilgan Ishchi guruhi tomonidan o‘rganib chiqilib, belgilangan rejaga muvofiq talabalar binolar va xonalar kesimida joylashtirildi.

Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida **Aloqa bankning sayyor kassasi tashkil etildi.** To‘lovlarni tizimli ravishda to‘lash amalga oshirildi.

Universitet ilmiy kengashi qaroriga muvofiq 2022/2023 o‘quv yili uchun Talabalar turar joyida talabalarni istiqomat qilishi uchun to‘lov miqdori 1 oyga 150.000 so‘m, 10 oyga 1500.000 so‘m etib belgilandi. Talabalar tomonidan (24.09.2022 yil holatida) **1 419 721 949 so‘m** to‘lov amalga oshirilgan

O‘rnatilgan tartib (*Vazirlikning 2019-yil 1-noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016-yil 9-noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to‘g‘risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar talabalar turar joyi **to‘lovidan ozod** qilindi.

Yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, “Temir daftar”, “Kam ta’minlangan” ro‘yxati(*sektor ma’lumotnomasi asosida*)ga olingan oila farzandi bo‘lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo‘lgan talabalarga **to‘lovni 50% to‘lash** imkoni berildi.

Shuningdek, talabalarni TTJga joylashtirishda universitetda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan tyutorlardan samarali foydalanildi.

Talabalar turar joyliga joylashtirishda birinchi navbatda, chin yetim, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta’minlangan, “Temir daftar”ga kiritilgan, I va II guruh nogironlari, surunkali kasalllik bilan davolangan, xorijdan kelib o‘qiyotgan, oilasida ikki va undan ortiq farzandi kontraktda o‘qiyotgan hamda 1-kurs talabalariga ustuvorlik berildi.

**Xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirish bo‘yicha:**

Joriy o‘quv yilidan universitet talabalariga qulaylik yaratish maqsadida Ijaraga ehtiyoji bo‘lgan talabalarga yordam berish maqsadida https://t.me/buxduijaramarkazi telegram kanali tashkil etildi. Talabalar manzilli ravishda ushbu telegram kanalidan ma’lumotlarni olib ijara xonadonini topish imkoniyati yaratildi.

Universitet rektori, prorektorlari, fakultet dekanlari, dekan o‘rinbosarlari va ayniqsa tyutorlar tomonidan talabalarni TTJga joylashishini tashkil etish bilan birga ijara xonadonlarini topish va

ijarachilar bilan tushuntirish ishlarini olib borgan holda ularni joylashtirishda xissasini qo‘shgan. Shuningdek, tyutorlar mas’ullar bilan birga ijara xonadoni egasi bilan narx navoni oshirmaslik bo‘yicha ham targ‘ibot ishlarini olib borishgan. Tyutorlar tomonidan tizimli ravishda ijara xonadoni sharoitlari ham o‘rganib borilgan.
Sentabr oyida jami **754 ta ariza** kelib tushgan shundan, **665 ta** arizalar ijtimoiy mezonlarga mos kelganligi sababli **87891446 so‘m ijara to‘lovi to‘lab berilgan**.
Talabalar www.ijara.soliq.uz saytidan xonadon egasining elektron kaliti orqali kirib talaba ijarasi bo‘limidan ijara shartnomalari rasmiylashtirilgan va talabalar tomondan tasdiqlangan va ikki tomonlama ijara shartnoma tuzildi.
Talabalarga mas’ullar, tyutorlar tomonidan ijara oluvchi va ijara beruvchilarga ijara to‘lovining qoplab beriladigan qismi bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan yani **150 ming so‘mdan(2022 yil iyun oyidan bazaviy hisoblash 300 ming so‘m etib belgilangan)** oshmasligi yuzasidlan targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.
Ijara oluvchi va ijara beruvchilarga mas’ullar tomonidan ro‘yxatga olingan doimiy yashash joyi doirasida (tuman-shahar miqyosida) ariza beruvchilarga oylik ijara to‘lovining qoplamaslik talabiga rioya qilingan bo‘lib, doimiy yashash joyi Buxoro shahrida bo‘lgan talabalarga to‘lov amalga oshirilmasligi aytib qoidalarga amal qilindi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol, taklif-mulohazalar bor? Marhamat!

“Universitet talabalar turar joylariga va xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirishni tashkil etish to‘g‘risida” gi masala bo‘yicha prorektor O‘. Rashidov, B. Qobilov, S. Qahhrovlar so‘zga chiqdilar. Bu masalaning muhimligini ta’kidladilar va universitetda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli ekanligini ta’kidlandi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning Universitet talabalar turar joylariga va xususiy ijara xonadonlariga talabalarni joylashtirishni tashkil etish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Ijarada istiqomad qiladigan talabalarning yashash sharoitlari doimiy ravishda o‘rganib borilsin hamda ijara shartnomasini rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratilsin (mas’ul: dekanlar, dekan o‘rinbosralari, tyutorlar, Talabalarni turar joy bilan ta’minlashni muvofiqlashtiruvchi bo‘lim).
3. Ijarada istiqomad qiladigan talabalar yashaydigan xonadonlar joylashgan MFYlari raislari, Yoshlar agentligi vakillari hamda profilaktika inspektorlari bilan hamukorlik yo‘lga qo‘yilsin (mas’ul: dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, tyutorlar).
4. Talabalar turar joyida istiqomad qiladigan talabalarning yashash sharoitlari doimiy ravishda o‘rganib borilsin hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha taklif kiritilsin (mas’ul: dekanlar, dekan o‘rinbosralari, tyutorlar, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
5. TTJda istiqomad qiladigan talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida “Kafedra kuni”, “Besh tashabbus kuni” tadbirlariga alohida e’tibor qaratilsin hamda talabalarni madaniy-ma’rifiy tadbirdlarga jalb etish choralari ko‘rilsin (mas’ul: dekanlar, dekan o‘rinbosralari, tyutorlar, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
6. Talabalarning talab va istaklari inobatga olingan holda to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilsin (mas’ul: dekanlar, dekan o‘rinbosralari, tyutorlar, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

---

## III. O‘QUV JARAYONI YO‘NALISHI BO‘YICHA:

**3. Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev (**o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Kafedralarda masofaviy ta'lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o'qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to'g'risida axborot berdi.

Bugungi axborot asri davrida Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish muhimdir. **2020 yil 23 sentyabr**da qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan masofaviy ta'lim olish huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, Qonunning **16-moddasi "Masofaviy ta'lim"** deb nomlanib, unda "Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi"– deb ko'rsatilgan.

Ko'pgina mamlakatlar ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun o'qish jarayoni zamonaviy AKTlarga asoslangan masofaviy ta'lim (MT) shaklini qo'llashadi. Ta'lim tizimi tajribalari ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida internet tizimi va AKTni yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

2022/2023 o'quv yili qabulida **12 ta** OTMda masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlari tasdiqlandi. Bunda, jami **3410 nafar** (2410 nafar o'zbek, 1000 nafar rus) to'lov-kontrakt asosida qabul kvotasi belgilangan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining **2020 yil 27 mart**da qabul qilingan ***"Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"***gi buyrug'iga ko'ra respublikamizdagi mavjud OTMlar masofaviy o'qitish texnologiyalarini yaratish va ishga tushirish yuzasidan ishlarni boshlagan edi. Universitet **O'quv-uslubiy departament** tarkibida Masofaviy ta'limni monitoring qilish bo'yicha **11 nafar** xodimdan iborat **Shtab** tashkil qilindi. Masofaviy ta'limni tashkil etish uchun https://hemis.buxdu.uz/ va onlayn nazoratlarni topshirish uchun http://uniwork.buxdu.uz/ hamda http://masofaviy.buxdu.uz masofaviy ta'lim platformasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Masofaviy ta'lim shaklida ta'lim sifatini ta'minlash uchun **3 ta asosiy** yo'nalishda tayyorgarlik ishlari olib borildi:

- Talabalarga o'quv materiallarini yangi raqamli formatda taqdim etish uchun har bir fandan **"Namunaviy onlayn kurs komplekslari"ni** tayyorlash;
- Pedagoglarni masofaviy ta'limga tayyorlash va qo'shimcha ishga qabul qilish;
- Elektron platforma va AKT infratuzilmasini kengaytirish;

**Namunaviy onlayn kurs komplekslari:**

Masofaviy ta'lim talabalaridan kelib chiqib, yangi o'quv yilidan har fanning o'quv resurslari **"Namunaviy onlayn kurs kompleksi"** sifatida joriy etildi. Uning tarkibiga elektron formatda: videoma'ruza, elektron qo'llanma (darslik), taqdimot materiallari, test topshiriqlari va keyslar to'plami, nazorat savollari va boshqa o'quv materiallari shakllantirildi.

Universitetda masofaviy ta'lim platformasini baholash, fanni o'qitish bo'yicha yaratilgan kurs tarkibiy qismlari (asosiy 16 ta kontent)ning to'liq kiritganligi, professor-o'qituvchi va talabalarning tizimdan foydlanishi (*24 soatda, 72 soatda, 1 haftada, umuman kirmaydiganla*r) bo'yicha hamda talaba va o'qituvchi o'rtasida hamda talabalar o'rtasida muloqotning yo'lga qo'yilganligi, kursni ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tizimining mavjudligi, talabalar tomonidan kurs sifatiga baho berish, dars jadvaliga mos ravishda o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish belgilangan.

Buxoro davlat universitetida 2022/2023 o'quv yili qabul rejasiga muvofiq masofaviy ta'lim shakli, shartnoma asosida **60610100 – Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishiga – 50 nafar** va **60610200 – Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoq va sohalar bo'yicha) yo'nalishiga – 50 nafar** abiturientlar tavsiya qilindi. Hozirgi vaqtda **60610100 – Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishiga – 58 nafar** hamda **60610200 – Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoq va sohalar bo'yicha) yo'nalishiga – 60 nafari** talabalar shartnoma olgan. **2 ta** akademik guruh tashkil qilingan va barcha talabalar masofaviy ta'lim platformasi orqali

ro‘yxatdan o‘tgan. Platforma orqali darslarda ishtirok etishmoqda. O‘qish shakli kredit-modul tizimida, o‘qish muddati 4 yilni tashkil qiladi.

http://masofaviy.buxdu.uz elektron manzil orqali **7 nafar** professor-o‘qituvchilar ro‘yxatdan o‘tib, o‘quv reja asosida yaratilgan fanlar ro‘yxati (*oliy matematika, diskret matematika va matematik mantiq, dasturlash asoslari, ma’naviyatshunoslik, kompyuter arxitekturasi, russkiy yazык*), fan kontentlarini to‘liq joylashtirilganligi o‘rganildi (2022 yil 28 sentyabr soat 10:20 da kichik zalda ma’sullar ishtirokida tizimga joylashtirilgan kontentlar tekshirildi va 7 nafar fan o‘qituvchilargi topshiriqlar berildi). Talabalar tomonidan masofaviy ta’lim platformasiga dars jadval asosida belgilangan kunda darsda ishtiroki ta’minlangan, fanlardan ma’ruzalar ZOOM onlayn tizimi orqali tashkil etib borilyapti.

Buxoro davlat universiteti 2022-2023 o‘quv yili qabulida 60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) va 60610100 - Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta’lim shakliga qabul qilingan talabalar http://masofaviy.buxdu.uz masofaviy ta’lim platformasi yordamida o‘qitilmoqda. **2022 yil 4-oktyabr** sanasida masofaviy ta’lim platformasida 60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishida **60 nafar**, 60610100 - Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalar ta’lim yo‘nalishida **58 nafar** talaba ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Hozirda masofaviy ta’lim platformasida 60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishida o‘quv rejada ko‘rsatilgan 5 ta fanlar – Rus tili, Ma’naviyatshunoslik, Diskret matematika va matematik mantiq, Oliy matematika, Dasturlash asoslari fanlari, 60610100 - Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari ta’lim yo‘nalishida 6 ta fan - Rus tili, Ma’naviyatshunoslik, Diskret matematika va matematik mantiq, Oliy matematika, Dasturlash asoslari va Kompyuter arxitekturasi fanlari tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Oliy matematika** fani bo‘yicha (o‘qituvchi Xilola Xayitova) **118 nafar** talaba kursga yozilgan, ammo ushbu 118 nafar talabadan **39 nafari** ushbu kurs materiallari, me’yoriy xujjatlari bilan tanishmagan. Fanning ma’ruza soatlari 90 soat, amaliy mashg‘ulotlari 90 soat, ammo masofaviy ta’lim platformasida 9 juftlik (18 soat) ga mos o‘quv materiallari joylashtirilgan.

**Diskret matematika va matematik mantiq** (fan o‘qituvchisi U. Umarova) faniga 118 nafar talaba kursga yozilgan, ammo **38 nafar** talaba bu kurs materiallari bilan umuman tanishib chiqmagan. Fanning ma’ruza soatlari 46 soat, amaliy mashg‘ulotlari 44 soatni tashkil etadi. O‘qituvchi tomonidan barcha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlari uchun yetarlicha o‘quv materiallari platformada joylashtirilgan.

**Ma’naviyatshunoslik** (fan o‘qituvchisi Laziz Xoliqov) faniga 118 nafar talaba biriktirilgan, ammo **45 nafar** talaba kursga tegishli xujjatlar va o‘tilgan ma’ruzalarning elektron nusxalari va seminar materiallari bilan umuman tanishmagan. Fanning ma’ruza soatlari 14 soat, seminar mashg‘ulotlari 16 soatni tashkil etadi. Fan o‘qituvchisi tomonidan masofaviy ta’lim platformasiga o‘quv materiallari tizimli tartibda joylashtirilmagan.

**Rus tili** (o‘qituvchi Shaxnoza Davidxodjaeva) faniga 118 kishi biriktirilgan, ammo kursda **82 nafar** talaba aktiv, qolgan 37 nafar talaba kursga umuman kirmagan. Fanning ma’ruza soatlari mavjud emas, amaliy mashg‘ulotlari 60 soat, ammo masofaviy ta’lim platformasida 10 juftlik (20 soat) ga mos o‘quv materiallari joylashtirilgan.

Axborot tizimlari ta’lim yo‘nalishining **dasturlash asoslari** (O‘qituvchi Suxrob Salimov) kursiga 60 nafar talaba biriktirilgan, ammo 21 nafar talaba fanga tegishli ma’lumotlar bilan tanishmagan. Fanning ma’ruza soatlari 46 soat, amaliy mashg‘ulotlari 44 soatni tashkil etadi. Masofaviy ta’lim platformasida fan haqidagi ma’lumotlar, o‘qituvchi bilan teskari aloqa kontatlari batafsil berilgan. Ammo o‘qituvchi tomonidan amaliy mashg‘ulotlar materiallari tizimli ravishda platformada kiritish tashkil qilinmagan.

**Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari** ta’lim yo‘nalishining dasturlash asoslari asoslari (O‘qituvchi Zarif Jo‘raev) kursiga 58 nafar talaba biriktirilgan, ammo 16 nafar talaba fanga tegishli ma’lumotlar bilan tanishmagan. Fanning ma’ruza soatlari 44 soat, amaliy mashg‘ulotlari 46 soatni tashkil etadi. Masofaviy ta’lim platformasida fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tizimning interaktiv imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Masofaviy ta’lim platformasining interaktiv imkoniyatlaridan tizimli foydalanish bo‘yicha bir qator o‘qituvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmagan. Mavzular bo‘yicha video materiallar, taqdimotlar, mavzuga mustahkamlashga doir test va topshiriqlar, glossariylarni yaratish maqsadga muvofiq.

**Masofaviy ta’lim platformasini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar:**

Masofaviy ta’lim platformasini ZOOM online platformasi bilan integratsiyasini ta’minlash;

Masofaviy ta’lim platformasida dars jadvallarini shakllantirish;

Masofaviy ta’lim platformasini dizaynini yaxshilash;

Kunduzgi va kechki ta’lim shakli guruhlari uchun fanlar kontentlarini yaratish;

Masofaviy ta’lim platformasidan boshqa ta’lim shakli uchun ham o‘quv jarayonlarida foydalanish.

Talabalarning mustaqil ta’lim olishlari uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining www.unilibraru.uz platformasi ishlab chiqilgan. Mazkur tizimga 4649 ta o'quv adabiyotlar, 9 ta maqola, 340 ta dissertatsiya, 230 ta monografiya joylashtirilgan.

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: “Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risida” gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, taklif-mulohazalar bor? Marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha o‘quv-uslbiy boshqarma boshlig‘i M.A. Tursunov, TSNQB boshlig‘i Z. Nurov, kafedra mudirlari so‘zga chiqdilar. Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilinganligini ta’kidlashdi va bu masala bo‘yicha o‘z takliflarini bildirishdi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

**1.** O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayevning Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risida hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Universitetda masofaviy ta’lim shaklida o‘quv jarayonni sifatli tashkil etish, platformani texnik va mazmun jihatdan to‘ldirish, tizimdan foydalanish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va talabalar qamrovini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (“Yo‘l xaritasi”)ni ishlab chiqsin (**Mas’ul**: *M.Tursunov, H.Eshonkulov*. **Muddat**: *2022 yil 10 oktabrgacha)*.

**3.** Kafedra mudiri hamda fan o‘qituvchilarining talabalar davomatini ta’minlash, har bir talabaga manzilli yondashish, tizimdan foydalanishini monitoring qilish, onlayn muloqot va so‘rovnomalar o‘tkazishni tizimli tashkil etsin.

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktabrdagi 539-sonli Qarori bilan tasdiqlangan **“Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** Nizomning mazmun mohiyati professor-o‘qituvchilar va talabalarga tushuntirilsin.

**5.** Ushbu qaror ijrosi nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini yo‘nalishi bo‘yicha:**

**4. Universitetda korrupsion xuquqbuzarliklarning oldini olish, ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish, universitet xodimlari va professor o‘qituvchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida hukukiy savodxonligini oshirish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: Y.Qulliyev (**Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig’i) kengash a’zolariga Kafedralarda masofaviy ta’lim jarayonining sifati va talabalarning onlayn o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risida axborot berdi.

2021-2022 o‘quv yili davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish, professor-o‘qituvchilar tomonidan ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilishni yo‘lga qo‘yish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, “Komplaens nazorat” bo‘limi tomonidan Oliy ta’limda Komplaens nazorat tizimi faoliyati, maqsadi va vazifalari, qabul qilingan qarorlar mazmun mohiyati haqida hamda ”Korrupsiyasiz Oliy ta’limni tashkil etish” mavzusida bo‘lim xodimlari, professor-o‘qituvchilar tomonidan 150 ga yaqin davra suhbatlari, ochiq darslar, ma’naviyat soatlari, o‘tkazildi hamda rasmiy saytlarda yoritildi. Ushbu tadbirlarga 886 nafar professor-o‘qituvchi, 10000ga yaqin nafar talaba-yoshlar, 350 ga yaqin ishchi xodimlar jalb qilindi.

Komplaens nazorat bo‘lim tomonidan o‘quv yili davomida doimiy tarzda so‘rovnomalar olish tashkil etildi. O‘tgan vaqt davomida bo‘limga fuqaro, talaba, professor-o‘qituvchi, ishchi xodimlar tomonidan kelib tushgan 30 ga yaqin murojaatlar vakolat doirasida tegishlicha o‘rganilib chiqilib, barchasi ijobiy hal qilindi.

Bo‘lim huzurida **“Talaba-yoshlar klubi”** ichki Nizomi vazifalarini amalga oshirish uchun sofdil, vatanparvar, adolatli 250 nafar talaba saralab olinib klubga a’zo qilindi. Talabalar orasida **”Korrupsiyani birgalikda yengamiz”, “Korrupsiysiz oliy ta`lim”, “Yoshlarimizda korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni shakllantiramiz”** mavzularida tanlovlar o‘tkazilib kelinmoqda. Tanlovda 500-600 nafar talaba ishtirok etdi. Tanlovda ishtirok etgan barcha talabalar Tashakkurnoma bilan, g‘olib bo‘lgan talabalar **“Esdalik sovg‘alari”, “Bazaviy stipendiya miqdorining 1 baravaridan 3 baravarigacha”** bo‘lgan miqdorda rag‘batlantirildi hamda diplomlar bilan taqdirlandi.

Klub a’zolari tomonidan o‘tkazilgan so`rovnomalar, kuzatuvlar, o‘rganishlar natijasida professor-o‘qituvchilarning faoliyati, darslarga ishtiroki, oliygohga munosib darsning olib borishi, talabalarning o‘qituvchiga munosabati, korrupsion jarayonlar, pedagog xodimlarnining guruhbozlik illatlariga uchraganligi haqida ayrim holatlar aniqlanmoqda. Aniqlangan holatlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlanib, universitet rektoriga taqdim qilinib borilmoqda.

So‘rovnomalar natijalari tahlili jarayonida professor-o‘qituvchilarning talabalardan sovg‘alar talab qilish, ayrim guruh sardorlari tomonidan fan o‘qituvchisi nomidan turli pul mablag‘lari o‘zlashtirish holatlari ham aniqlandi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, talabalar va pedagoglar orasida korrupsiyaga qarshi toqatsizlik shakllantirilib borilmoqda. Komplaens nazorat bo‘limiga bo‘limga murojaatlar soni ko‘paydi, “Talaba-yoshlar klubi” a’zolari tarkibi kengayib bormoqda, fakultet dekanlari va jamoasi bilan hamkorlikda tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Erishilgan natijalarga qaramasdan, ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalarining buzilishi va korrupsion holatlarning ro‘y berishi kuzatildi. O‘quv yili davomida jami 16 nafar professor-o‘qituvchi, 3 nafar tyutorga hamda 4 nafar talabaga nisbatan intizomiy jazo qo‘llandi. Shundan,

- 10 nafar professor-o‘qituvchiga nisbatan ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalarini buzganligi sababli intizomiy chora sifatida “Xayfsan” berildi;
- 1 nafar professor-o‘qituvchiga nisbatan ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalarini buzganligi sababli “Oylik maoshidan bir martalik 30 foiz mablag‘ saqlab qolish” intizomiy chorasi ko‘rildi;
- 4 nafar professor-o‘qituvchiga nisbatan korrupsion huquqbuzarlik sodir etganligi sababli “Oylik maoshidan bir martalik 30 foiz mablag‘ saqlab qolish” intizomiy chorasi ko‘rildi;
- 1 nafar professor-o‘qituvchiga nisbatan korrupsion huquqbuzarlik sodir etganligi sababli o‘z arizasiga muvofiq mehnat shartnomasi bekor qilindi;
- 1 nafar tyutorga nisbatan korrupsion huquqbuzarlik sodir etganligi sababli o‘z arizasiga muvofiq mehnat shartnomasi bekor qilindi;
- 2 nafar tyutorga nisbatan ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalarini buzganligi sababli o‘z arizasiga muvofiq mehnat shartnomasi bekor qilindi;
- 4 nafar talabaga nisbatan korrupsion huquqbuzarlik sodir etganligi sababli intizomiy chora sifatida “Xayfsan” berildi.

(Intizomiy chora ko‘riganlar ro‘yxati o‘qib eshittiriladi)

E’tiborlaringiz uchun rahmat, savollar bo‘lsa marhamat!

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: “Universitetda korrupsion xuquqbuzarliklarning oldini olish, ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish, universitet xodimlari va professor o‘qituvchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida hukukiy savodxonligini oshirish

to‘g‘risida” gi masala bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotga kimda qanday qo‘shimcha ma’lumot, savol, taklif-mulohazalar bor? Marhamat!

“Universitetda korrupsion xuquqbuzarliklarning oldini olish, ichki-tartib intizom, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish, universitet xodimlari va professor o‘qituvchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida hukukiy savodxonligini oshirish to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kengash a’zolari va kengash raisi o‘z fikrlarini bildirdilar. Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb topildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Universitet kafedra va bo’limlar kesmida pedagog xodimlar orasida “Odob-axloq kodeksi” va “Ichki-tartib qoidalar”ni o’rganib bayonlashtirish va «Komplaens nazorat» bo’limiga yetkazish.
2. Fakultet kengashlarida yangi ishga qabul qilingan professor-o’qituvchilar va ishchi-xodimlarni Komplaens-nazorat tizimi, korrupsiyasiga qarshi kurashish Nizomlari va meyoriy hujjatlari bilan tanishtirish, korrupsion huquqbuzarlik sodir etmaslik boyicha ogohlantirish.
3. Sifat darajasi ko’tarilganda korrupsiyaviy xolatlarning kamayishini inobatga olib, fakultetlarda kafedralar kesimida sifatli va mazmunli dars bera olmaydigan o’qituvchilar ro’yxatini tuzib, ularni «ustoz-shogird» sifatida tajribali pedagoglarga biriktirib ro’yxatini shakllantirish.

---

**<u>V.Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha:</u>**

**5.1. 2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: Z.Nurov** (TSNQB boshlig‘i) kengash a’zolariga 2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirish to‘g‘risida axborot berdi.

2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirishga ruxsat berishingizni so’rayman.

| | **F.I.Sh.** | **Lavozimi** | **Natija (ball)** | **Rag'batlantirish miqdori, so’m** |
|---|---|---|---|---|
| | Olimov Shirinbay Sharofovich | Pedagogika kafedrasi mudiri, (fan doktori yoki professor) | 109 | 10 211 640 |
| | Xolliyev Askar | Biologiya kafedrasi mudiri, (fan doktori yoki professor) | 108 | 10 211 640 |
| | Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich | Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 107 | 9 579 993 |
| | Jalolov Ozodjon Isomiddinovich | Amaliy matematika va dasturlash kafedrasi mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 105 | 9 579 993 |
| | Olimov Laziz Yarashovich | Psixologiya kafedrasi dotsenti | 101 | 7 711 369 |
| | Toirova Guli Ibragimovna | O’zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, fan doktori yoki professor unvoniga ega | 99 | 8 237 742 |
| | Qosimova Nafisa Farhodovna | Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedra mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 98 | 4 789 996,5 |
| | Jumayev Jo‘ra XXX | Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti | 96 | 3 855 684,5 |
| | Umarova Umida Umarovna | Matematik analiz kafedra katta o‘qituvchisi | 95 | 3 092 443 |
| 0 | Norboyeva Umida Toshtemirovna | Ekologiya va geografiya kafedrasi professor | 94 | 4 868 952,5 |
| 1 | Fayzullayev Otabek Muxammadovich | Ingliz adabiyotshunosligi kafedra mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 94 | 4 789 996,5 |
| 2 | Durdiyev Umidjon Durdimuratovich | Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 94 | 4 789 996,5 |
| | Xodjayeva | Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedra mudiri, | 93 | 2 394 998,25 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Dilafro‘z Izzatullayevna | (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | | |
| 4 | Mamatova Nilufar Husenovna | Differensial tenglamalar kafedrasi dotsent | 92 | 1 927 842,25 |
| 5 | Quvvatova Dilrabo Habibovna | O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori | 92 | 2 434 476,25 |
| 6 | Nazarov Akmal Mardonovich | Psixologiya kafedrasi mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 92 | 2 394 998,25 |
| 7 | Bo‘ronova Gulnora Yodgorovna | Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | 91 | 1 546 221,5 |
| 8 | Hakimova Nargiza Supxonovna | Maktabgacha ta’lim kafedrasi assistenti | 91 | 1 217 238 |
| 9 | Ahmedova Shoira Nematovna | O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori | 91 | 2 434 476,25 |
| 0 | Nurutdinova Feruza Muidinovna | Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, fan nomzodi yoki dotsent unvoniga ega | 91 | 1 927 842,25 |
| 1 | Jurayev Bobomurod Tojiyevich | Pedagogika kafedrasi assistant o'qituvchisi | 91 | 1 217 238 |
| 2 | Mamatov Dilshod Kodirovich | Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedra mudiri, (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | 91 | 2 394 998,25 |

E’tiboringiz uchun rahmat, Savollar bo‘lsa marhamat!

**Kengash raisi: O.X. Xamidov – “**2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirish to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. TSNQB boshlig‘i Z.Nurovning “2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirish to‘g‘risida”gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.
2. “2021/2022 o’quv yilida 110 ballik tizim asosida samarali faoliyat ko’rsatgan quyidagi pedagog-xodimlarni moddiy rag’batlantirish to‘g‘risida”gi ishchi guruh xulosasiga asosan o‘rnatilgan tartibda ra-batlantirilsin.
3. Kengash qarori barcha kafedralarda muhokama qilinsin.
4. Ushbu qaror ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev, TSNQB boshlig‘i Z.Nurov, universitet katta yuristkonsulti Sh.Sh. Sharapov, xodimlar bo‘limi boshlig‘i U.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

---

**5.2. “2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: Z.Nurov** (TSNQB boshlig‘i) kengash a’zolariga “2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish to‘g‘risida_axborot berdi.

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G’. Jumayev, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i Z.S. Nurov, universitet katta yuristkonsulti Sh.Sh. Sharapov, xodimlar bo‘limi boshlig‘i U.Fayziyevalardan iborat ishchi guruhning 2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish bo’yicha**

**X U L O S A S I**

I. 35-54 ball to’plagan pedagog-xodimlarga kafedra mudirlari va fakultet dekanlari tomonidan faoliyatni yaxshilash bo’yicha tushuntirish ishlari olib borilsin va 2022-2023 o’quv yili uchun shakllantiriladigan shaxsiy ish rejalariga qat’iy rioya qilish va nazoratga olinsin.

| o. | LAVOZIMI | F.I.O. | KAFEDRA | TEL EFON | ALL |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | | RAQAM | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | SAIDOVA NILUFAR MUXAMMADOVNA | Differensial tenglamalar | 9144 08555 | 4 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | O`RINOV SHAMSHOD KOMILOVICH | Musiqa ta`limi | 9730 91113 | 4 |
| | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | BOLTAYEVA MANZURA SHARIPOVNA | Rus tili va adabiyoti | 9338 31078 | 4 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | MUXTOROVA MAFTUNA ILXOM QIZI | Tarjimashunovlik va lingvodidaktika | 9144 13577 | 4 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | JO`RAYEV SHUHRAT ISROILOVICH | Matematik analiz | 9362 34044 | 3,5 |
| | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | QUDRATOV AZIZJON DEHQONBOYEVICH | Iqtisodiyot kafedrasi | 9365 80960 | 3 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AYMATOVA ZARNIGOR G`ULOMOVNA | Jahon tarixi | 9131 05743 | 3 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | MARDANOVA FERUZA YADGAROVNA | Matematik analiz | 9071 29012 | 3 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | KALANDAROVA FERANGIZ AZAMATOVNA | Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari | 9144 49814 | 3 |
| 0 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AVEZOVA DILOVAR SALIMOVNA | Rus tili va adabiyoti | 9396 91971 | 3 |
| 1 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TOSHEV YUNUS NOROVICH | Texnologik ta`lim | 9955 51461 | 3 |
| 2 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | PARMONOV HAMID FAXRIDDIN O`G`LI | Differensial tenglamalar | 9389 20335 | 2 |
| 3 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega) | DJURAYEV HUSEN XAYRULLOYEVICH | Islom tarixi va manbashunoslik | 9071 51641 | 2 |
| 4 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | ERGASHEV AVAZ AMON O`G`LI | Jahon tarixi | 9994 45586 | 2 |
| 5 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | NASIMOVA NASIBA QURBON QIZI | Maktabgacha ta`lim | 9140 75727 | 2 |
| 6 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TO`RAYEVA LAYLO OMONOVNA | O`zbek tili va adabiyoti | 9063 76853 | 2 |
| 7 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega) | TOSHOV HAYOT MUHAMMADOVICH | Biologiya kafedrasi | 9140 96582 | 1 |
| 8 | Kafedra mudiri (fan nomzodi yoki ilmiy unvonga ega) | RO`ZIYEVA MOHICHEHRA YOQUBOVNA | Boshlang`ich ta`lim nazariyasi | 9140 61129 | 1 |
| 9 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | XIDIROV UMIDJON BAHRONOVICH | Differensial tenglamalar | 9071 51699 | 1 |
| 0 | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | USMANOVA AZIZA BAXODIROVNA | Iqtisodiyot kafedrasi | 9071 10609 | 1 |
| 1 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | HOJIYEVA NIGINA HAYOT QIZI | O`zbek tilshunosligi | 9728 08929 | 1 |
| 2 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AVEZOV SUXROB SOBIROVICH | Rus tili va adabiyoti | 9345 34442 | 4 |
| 3 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | GAFUROV NODIR MUXITDINOVICH | Fakultetlararo jismoniy madaniyat | 9071 15404 | 0 |
| 4 | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | YADGAROVA LOLA JALOLOVNA | Axborot texnologiyalari | 9131 26150 | 8 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy | KURBANOVA | Boshlang`ic | 9051 | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5 | daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | GULZODA YUNUSOVNA | h ta`lim nazariyasi | 15292 | 8 |
| 6 | DOTSENT, fan doktori yoki professor unvoniga ega | JAMILOVA BASHORAT SATTOROVNA | Boshlang`ich ta`lim nazariyasi | 9140 64328 | 8 |
| 7 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | SAFAROVA MAFTUNA ZOIR QIZI | O`zbek tilshunosligi | 9778 11621 | 7 |
| 8 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | SAPAROVA MOHIGUL RAMAZONOVNA | Ingliz tilshunosligi | 9131 00204 | 6,5 |
| 9 | DOTSENT, fan nomzodi yoki dotsent unvoniga ega | NAFETDINOV SHAVKATULLO SHUKUROVICH | Tuproqshunoslik kafedrasi | 9071 19730 | 6 |
| 0 | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja yoki unvonga ega) | RO`ZIYEV SOBIRJON SAMATOVICH | Turizm va mehmonxona xo`jaligi | 9970 99062 | 6 |
| 1 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | IBRAGIMOV MANUCHEHR BAXTIYOROVICH | Fakultetlararo jismoniy madaniyat | 9140 59571 | 5 |
| 2 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AXMEDOVA DILSORA MUXSINOVNA | Ingliz adabiyotshunosligi | 8823 75566 | 5 |
| 3 | DOTSENT, fan doktori yoki professor unvoniga ega | KADIROV RASHID XAMIDOVICH | Jismoniy madaniyat nazariyasi | 9970 40562 | 5 |
| 4 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AKOBIROVA MADINA BO`RONOVNA | Texnologik ta`lim | 9730 48848 | 5 |
| 5 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | QURBONOV AZIZBEK ULUG`BEKOVICH | Iqtisodiyot kafedrasi | 9098 89939 | 4 |
| 6 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | ZARIPOV SODIQ DJORAYEVICH | Jahon tarixi | 9345 70421 | 4 |
| 7 | DOTSENT, fan nomzodi yoki dotsent unvoniga ega | KLICHEV OYBEK ABDURASULOVICH | Buxoro tarixi | 9345 51188 | 3 |
| 8 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | HAMROYEVA MAFTUNA RASULOVNA | Boshlang`ich ta`lim metodikasi | 9140 64493 | 2,5 |
| 9 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | HASANOV IBROHIM IXTIYOROVICH | Differensial tenglamalar | 9141 47443 | 0 |
| 0 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | KASIMOV ABDULLO MUXAMEDOVICH | Differensial tenglamalar | 9131 09260 | 0 |
| 1 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TAJIBOYEV MAKSUD BAXTIYOROVICH | Turizm va mehmonxona xo`jaligi | 9368 50097 | 0 |
| 2 | DOTSENT, fan nomzodi yoki dotsent unvoniga ega | XODJIYEV SAFAR XXX | Matematik analiz | 9314 16866 | 9,5 |
| 3 | DOTSENT, fan doktori yoki professor unvoniga ega | ASTANOVA GULNORA AMINOVNA | O`zbek tilshunosligi | 9827 44803 | 7 |
| 4 | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | ZUBOV IGOR NIKOLAYEVICH | Rus tili va adabiyoti | 9396 00809 | 6 |
| 5 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TOJIDDINOV ABDUSAMAD ABDULBOSID O`G`LI | Islom tarixi va manbashunoslik | 9041 41294 | 1 |
| 6 | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | AZIMOV OTABEK XUDAYBERDIEVICH | Turizm va mehmonxona xo`jaligi | 9144 76543 | 8 |
| 7 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | ERGASHEV NAVRUZ XAKIMOVICH | Amaliy matematika va dasturlash | 9308 06266 | 4 |

II. 35 balldan past ko'rsatkich qayd etgan pedagog-xodimlarni 2022-2023 o'quv yili davomida (bayram munosabati uchun beriladigan) moddiy rag'batlantirishlar berilmasin. (Izoh: samarali faoliyat natijasida rag'batlantirish bundan mustasno. Masalan, o'quv qo'llanma va darsliklar nashr etish yoki dissertatsiya himoyalarini amalga oshirish va boshqa turdagi faoliyat natijalarini rag'batlantirish o'z kuchini yo'qotmaydi)

| **o.** | **LAVOZIMI** | **F.I.O.** | **KAFEDRA** | **TELEFON RAQAM** | **ball** |
|---|---|---|---|---|---|
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | DJURAYEV JURA RAXMONOVICH | Jismoniy madaniyat nazariyasi | 997361536 | 34 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | CHORAQULOVA DILNORA ZOKIRJONOVNA | Rus tili va adabiyoti | 911344994 | 33,5 |
| | Katta o`qituvchi (ilmiy daraja va unvonga ega emas) | AKRAMOVA MATLUBA TULKINOVNA | Maktabgacha ta`lim | 907150775 | 29 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | FUZAYLOVA NIGINA XAKIMOVNA | Psixologiya kafedrasi | 903285554 | 22 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | XAMROYEVA ROXAT UTKIROVNA | Ingliz adabiyotshunosligi | 907184536 | 21 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | XALILOV BAHROMJON BAHODIROVICH | Iqtisodiyot kafedrasi | 934771011 | 21 |
| | Professor, fan doktori va professor unvoniga ega | MAXMUDOV MELS XASANOVICH | Boshlang`ich ta`lim nazariyasi | 909070304 | 20 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega) | LATIPOV HAYOT RAMAZONOVICH | O`zbek tili va adabiyoti | 934588827 | 18 |
| | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | XABIBULLAEVA ROZA MUHAMMADAYUBO VNA | Ingliz adabiyotshunosligi | 914147300 | 17 |
| 0 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | VOXIDOV ANVAR TILOVVICH | Rus tili va adabiyoti | 930821155 | 16 |
| 1 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | AMONOV ABDULAZIZ O`KTAM O`G`LI | Biologiya kafedrasi | 977075443 | 13 |
| 2 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TURAEV MARDONJON FARMONOVICH | Axborot texnologiyalari | 931441300 | 12 |
| 3 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | NOROV BEKTOSH NEGMUROD O`G`LI | Psixologiya kafedrasi | 993509545 | 12 |
| 4 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | BOLTAYEVA DILSORA DONIYORQIZI | Islom tarixi va manbashunoslik | 997090596 | 11 |
| 5 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | RUSTAMOV BAXSHI BAROTOVICH | Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari | 907122630 | 10 |
| 6 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega) | PARDAYEV SHAMEDIN XXX | Biologiya kafedrasi | 934593621 | 9 |
| 7 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | JALOLOV ELBEK BAXSHILLOYEVICH | Biologiya kafedrasi | 912424940 | 8 |
| 8 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | ATOYEVA MAXLIYO DJALOLITDINOVNA | Psixologiya kafedrasi | 914131102 | 5 |
| 9 | Assistent o`qituvchi (ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega emas) | TUKHTAYEV UMIDJON SHUXRAT OGLI | Psixologiya kafedrasi | 916489909 | 4 |

E'tiboringiz uchun rahmat, Savollar bo'lsa marhamat!

**Kengash raisi: O.X. Xamidov -** “2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. TSNQB boshlig‘i Z.Nurovning “2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish to‘g‘risida” gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.
2. “2021-2022 o’quv yilida pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning 110 lik tizimi asosida faoliyati qoniqarsiz deb topilgan professor-o’qituvchilarga chora ko’rish to‘g‘risida”gi ishchi guruh xulosasiga asosan o‘rnatilgan tartibda chora ko‘rilsin.
3. Kengash qarori barcha kafedralarda muhokama qilinsin.
4. Ushbu qaror ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev, TSNQB boshlig‘i Z.Nurov, universitet katta yuristkonsulti Sh.Sh. Sharapov, xodimlar bo‘limi boshlig‘i U.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

---

**VI. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo‘nalishlari bo‘yicha:**

**6. Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to‘g‘risida**

**ESHITILDI: G.T. Zaripov (**IT, I va IPKTB boshlig‘i) kengash a’zolariga Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to‘g‘risida axborot berdi.

Oliy attestatsiya komissiyasining qaroriga asosan universitetda fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi **14 ta** ixtisoslik bo‘yicha jami **8 ta** kengash faoliyat ko‘rsatmoqda.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda joriy yilning **9 oyi** davomida kelib tushgan arizalar soni **138 ta**, o‘tkazilgan seminarlar soni **122 ta**, o‘tkazilgan himoyalar soni **68 ta (3 ta** himoya kuni belgilangan), OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **40 ta.**

**Kengashlar faoliyati tahlili quyidagicha:**

**1.** Filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) darajasini beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **29 ta**, o‘tkazilgan seminarlar soni **26 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni **16 ta** (2 ta himoya kuni belgilangan), OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni esa **7 tani tashkil etadi.**

**2.** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **17 ta,** o‘tkazilgan seminarlar soni **16 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni **7 ta** (1 ta himoya kuni belgilangan), OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **8 tani tashkil etadi.**

**3.** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **30 ta,** o‘tkazilgan seminarlar soni **26 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni **18 ta,** OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **4 tani tashkil etadi.**

**4.** Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.Tar.72.07 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **18 ta**, o‘tkazilgan seminarlar soni **17 ta**, o‘tkazilgan himoyalar soni **10 ta**, OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **7 tani tashkil etadi.**

**5.** Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **13 ta,** o‘tkazilgan seminarlar soni **11 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni 10 ta, OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **1 tani tashkil etadi.**

**6.** Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **15 ta,** o‘tkazilgan seminarlar soni **15 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni **2 ta,** OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **13 tani tashkil etadi.**

**7.** Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.72.01 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **5 ta**, o‘tkazilgan seminarlar soni **5 ta**, o‘tkazilgan himoyalar soni **5 ta**, OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **0 tani tashkil etadi.**

**8.** Filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) darajasini beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashga kelib tushgan arizalar soni **8 ta**, o‘tkazilgan seminarlar soni **6 ta,** o‘tkazilgan himoyalar soni **0 ta,** OAK ga ximoya e’loni uchun yuborilgan xujjatlar soni **0 tani tashkil etadi.**

**Jami:** O‘tkazilgan himoyalar soni – **68 ta (33 tasi** BuxDU izlanuvchilari)
Himoya kuni belgilanlar soni – **3 ta (3 tasi** BuxDU izlanuvchilari)
E’lon kutayotganlar soni – **40 ta (23 tasi** BuxDU izlanuvchilari)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov -** “Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy kengashlarga normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, dissertatsiyalar muhokamasida noxolis ekspertiza va ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilishini oldini olish, tegishli ilmiy-tashkiliy ishlarni talab darajasida amalga oshirish hamda, dissertatsiya himoyalarini tashkil etishda barcha shart-sharoitlar yaratib berilsin. (IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov, Kengashlar raislari)
3. Ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchi etib tayinlangan professor-o‘qituvchilar o‘zlariga biriktirilgan doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va mustaqil izlanuvchilarning doktorlik dissertatsiyalari va aftoreferatlari Nizom talablari asosida rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratsin. (Ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchilar)
4. Doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga dissertatsiya himoyalarini o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha ilmiy rahbar va kafedra mudirlarining mas’uliyati oshirilsin. Doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga zarur shart-sharoitlar yaratish choralari ko‘rilsin. (IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)
5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor v.v.b. A.T. Jurayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**VII. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha:**

**7. Universitet fakultet va qo‘shma ta’lim dasturlarida xorijlik abiturentlarning qabul jarayonining yakunlanishi, ko’rsatkichlar va amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifalar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O. Raximov (**Qo’shma ta’lim dasturlari bolim boshlig’i) kengash a’zolariga Universitet fakultet va qo‘shma ta’lim dasturlarida xorijlik abiturentlarning qabul jarayonining yakunlanishi, ko’rsatkichlar va amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifalar to‘g‘risida axborot berdi.

**Universitet qo‘shma ta’lim dasturlariga abiturentlarning qabul jarayoni yakunlanishi, ko’rsatkichlar va amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifalar to‘g‘risida:**

Buxoro davlat universiteti qo'shma ta'lim dasturlariga 2022/2023 o'quv yiliga qabul jaraynlari joriy yilning 25-sentabr sanasiga qadar davom etdi. Qabul jarayoni yakunlari bo'yicha hosibotimni ma'lumot uchun qabul qilishingizni so'rayman.

2022-2023-o'quv yilida Qo'shma ta'lim dasturlariga 4 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 6 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha hujjatlar www.bukhsujoint.uz sayti orqali qabul qilindi.

- Isroilning Holon texnologiyalar instituti bilan hamkorlikdagi **Amaliy matematika va informatika** bakalavriat dasturiga 25 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 23 ta hujjat qabul qilingan;
- Isroilning Holon texnologiyalar instituti bilan hamkorlikdagi **Informatika va axborot texnologiyalari** bakalavriat dasturiga 25 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 70 ta hujjat qabul qilingan;
- Fransiyaning Vatel mehmonxona va turizm oliy maktabi bilan hamkorlikdagi **Xalqaro mehmonxona menejmenti** bakalavriat dasturiga 40 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 52 ta hujjat qabul qilingan;
- Rossiyaning Qozon federal universiteti bilan hamkorlikdagi **Iqtisodiyot** bakalavriat dasturiga 40 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 164 ta hujjat qabul qilingan;
- Indoneziyaning Gunadarma universiteti bilan hamkorlikdagi **Raqamli turizm** magistratura mutaxassisligiga 12 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 3 ta hujjat qabul qilingan;
- Rossiyaning Qozon federal universiteti bilan hamkorlikdagi **Iqtisodiyot** magistratura mutaxassisligiga 12 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 3 ta hujjat qabul qilingan;
- Rossiyaning Qozon federal universiteti bilan hamkorlikdagi **Tilshunoslik: Rus tili** magistratura mutaxassisligiga 12 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 14 ta hujjat qabul qilingan;
- Rossiyaning Qozon federal universiteti bilan hamkorlikdagi **Inson resurslarini boshqarish** magistratura mutaxassisligiga 12 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 1 ta hujjat qabul qilingan;
- Rossiyaning "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti bilan hamkorlikdagi **Iqtisodiy xavfsizlik** magistratura mutaxassisligiga 12 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib hujjat topshirilmagan;
- Bolgariyaning Sofiya universiteti bilan hamkorlikdagi **Xorijiy til: Ingliz tili** magistratura mutaxassisligiga 28 ta kvota o'rni ajratilgan bo'lib 3 ta hujjat qabul qilingan;

Jami ajratilgan 210 ta kvota o'rinlariga abituriyentlar tomonidan topshirilgan hujjatlar soni 357 tani tashkil qilib, shundan bakalavriat dasturlariga 308 ta, magistratura mutaxasisliklariga 49 tani tashkil qiladi.

Fransiyaning Vatel mehmonxona va turizm oliy maktabi bilan imzolangan shartnomaga muvofiq IELTS (5.0), CEFR (B2 daraja), TOEFL (B2 daraja) sertifikatlaridan birini taqdim qilgan abituriyent o'qishga FOUNDATION (tayyorlov bosqichini) o'qimasdan ikkinchi bosqichdan qabul qilinishi belgilanganligini inobatga olib 2022-2023-o'quv yilida 20 nafar abituriyentlar hujjatlari qabul qilindi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov -** "Universitet fakultet va qo'shma ta'lim dasturlarida xorijlik abiturentlarning qabul jarayonining yakunlanishi, ko'rsatkichlar va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar to'g'risida"gi masala bo'yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a'zolarining takliflari eshitildi.

**Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofqilashtirish bo'limi boshlig'i O.H.Rahimovning BuxDU qo'shma ta'lim dasturlariga 2022-2023- o'quv yilida qabul jarayoni bo'yicha hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i O.H.Rahimovga: Hamkor OTMlar va DTM Buxoro filiali bilan kelishilgan holda qo'shma ta'lim dasturlariga kirish imtihonlari adolatli va shaffof tarzda tashkil qilinsin.
3. Xorijiy til bilish sertifikati IELTS (5.0), CEFR (B2 daraja), TOEFL (B2 daraja)ni taqdim etib **Xalqaro mehmonxona menejmenti** bakalavriat dasturiga o'qish istagini bildirgan abituriyentlar 2-bosqichdan talabalar safiga qabul qilish bo'yicha buyruq loyihasi tayyorlansin.

## VII. Turli masalalar.

**7.1. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o‘qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to‘g‘risida**

**7.1.1.** Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**7.1.2.** Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**7.1.3.** Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti Inoyatov Abdullo Shodiyevichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a’zolariga professor va dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovichning, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti Inoyatov Abdullo Shodiyevichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida axborot berdi.
Юьорида номлари келтирилган талабгорларнинг O‘zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodlarning mazkur unvonga loyiqligini ta’kidlab, tavsiya beruvchi kafedra hamda fakultetlarning tegishli yig‘ilish bayonlaridan va ilmiy-texnik kengashning 2022-yil 4-октябрdagi 2- kengash bayoni ko‘chirmalari mavjudligini ma’lum qildi.

Shundan so‘ng, kengash kotibi ilmiy unvonga talabgorlarning so‘nggi yillar mobaynida nashr ettirgan ilmiy, shiuv-uslubiy ishlari natijasi haqida ma’lumot berdi.

Xulosa qilib aytganda, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovichning, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti Inoyatov Abdullo Shodiyevichlar OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo‘yilgan talablarini to‘liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengashda 77 nafar Kengash a’zosida 70 nafari ishtirok etdi.
Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

**Talabgoлар:** Farmonov O‘tkir Alimovich, Raxmonov Rauf Rafsulovich, Inoyatov Abdullo Shodiyevichga 70 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovichning, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti Inoyatov Abdullo Shodiyevichlar dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.
2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 kun muddatda O‘zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2022-yil 14- sentabrgacha)

---

**7.2. Ilmiy - ijodiy ta’til berish haqida**

**7.2.1. Matematik analiz kafedrasi o‘qituvchisi Sh.I. Jo`rayevga ilmiy ijodiy ta’til berish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: G.Zaripov** (Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘limi boshlig‘i) – kengash a’zolariga Matematik analiz kafedrasi o`qituvchisi Sh.I.Jo`rayevning bir necha yillar davomida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib borayotganligi aytib o‘tdi. “Yig`ilgan massasi bo`lgan qovushqoq-elastik silindrik qoboqning erkinva majburiy tebranish xususiyatlari” (01.02.04 – Deformasiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va 01.02.01-Nazariy mexanika ixtisosliklari) nomli doktorlik dissertatsiyasi mavzusi OAKning dissertatsiya mavzularini ro‘yxatdan o‘tkazish elektron bazasiga kiritilganligi hamda O`zbekiston Respublikasi Bazirlar Maxkamasi Huzuridagi Oliy Attestasiya Komissiyasi raisining №433 qarori asosan bir martalik ilmity kengash qarori tasdiqlangan. Talabgorning doktorlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Ularning 7 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamlarida, 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 2 tasi respublika jurnallarida va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Sh.I.Jo`rayev 2 oy muddatda (2022-yil 03-oktyabrdan va 2022-yil 30-noyabrgacha) ijodiy ta’til berishni kengashdan so‘radi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a’zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab – quvvatladilar.
Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

**1.** Buxoro davlat universiteti Matematik analiz kafedrasi o`qituvchisi Sh.I.Jo`rayevga (2022-yil 03-oktybrdan va 2022-yil 30-noyabrgacha) muddatda doktorlik (PhD) dissertatsiyasi mavzusini yozib tugatish maqsadida ijodiy ta’til berilsin.

2. Sh.I.Jo`rayevning ijodiy ta’til davri uchun yo‘l xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘limi boshlig‘i G.Zaripov va B.I. Adizov).

3. Sh.I.Jo`rayevga ijodiy ta’tildan qaytgandan so‘ng kengashga o‘rnatilgan tartibda hisobot taqdim etsin (mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘limi boshlig‘i G.Zaripov va B.I. Adizov).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘limi boshlig‘i G.Zaripov zimmasiga yuklatilsin.

**7.2.2. Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovichga ilmiy ijodiy ta’til berish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: G. Zaripov** (Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘limi boshlig‘i) – kengash a’zolariga Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovich bir necha yillardan buyon fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib borayotganligi aytib o‘tdi. Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovich doktorlik dissertatsiyasini yakunlaganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi qaroriga asosan 09.00.03-falsafa tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Imom G‘azzoliyning jahon falsafiy fanlar taraqqiyotidagi o‘rni va roli” mavzusidagi dissertatsiyasi himoyasini o‘tkazish uchun 2022 yil 31 dekabrga qadar bir martalik ilmiy kengash tuzilganligini inobatga olib Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovichga doktorlik dissertatsiyasi himoyasini amalga oshirish uchun 2022-yil 3-oktyabrdan 3-dekabrga qadar ijodiy ta’til so‘rab ariza bilan murojaat qilganligini ma’lum qildi.

Kengash a’zolariga Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovich 2oy muddatda (05.10.2022-yildan - 03.12.2022-yilgacha) ijodiy ta’til berishni kengashdan so‘radi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a’zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab – quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi mudiri Muzaffarov Firuz Davronovichga (5.10.2022-yildan - 3.12.2022-yilgacha) muddatda fan doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya jarayonlarini amalga oshirish maqsadida ijodiy ta'til berilsin.

2. Muzaffarov Firuz Davronovichning ijodiy ta'til davri uchun yoʻl xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya boʻlimi boshligʻi G.Zaripov va F.D. Muzaffarov).

3. F.D. Muzaffarov ijodiy ta'tildan qaytgandan soʻng kengashga oʻrnatilgan tartibda hisobot taqdim etsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov va F.D. Muzaffarov).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiya boʻlimi boshligʻi G.Zaripov zimmasiga yuklatilsin.

---

**8.3. "Ayniy vorislari" xalqaro elektron jurnalini ta'sis etish toʻgʻrisida**

**ESHITILDI: G. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash boʻlim boshligʻi, t.f.n., dotsent) kengash a'zolariga universitetda **"Ayniy vorislari"** xalqaro elektron jurnalini ta'sis etish toʻgʻrisida axborot berdi.

Bugungi kunda universitetimiz OAK tasarrufidagi 5 ta jurnal faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga koʻp yillardan beri universitetimizda Filologiya yoʻnalishi boʻyicha salohiyatli mutaxassislar faoliyat koʻrsatayotganligini hisobga olib, aynan ushbu yoʻnalishda ham jurnal ta'sis etishga ehtiyoj borligi ma'lum boʻldi.

Bizga ma'lumki, Buxoroning mutafakkir farzandi Sadriddin Ayniy nomini bugun dunyo biladi. Uninng serqirra ijodiy faoliyati jahon ilm-fanida, adabiyotida e'tirof etilgan. Yana bu yoʻnalishda amalga oshirilishi kerak boʻlgan ishlarimiz talaygina. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, Filologiya fakulteti Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi tashabbusi bilan "Ayniy vorislari" nomli xalqaro elektron jurnalni ta'sis etish boʻyicha hujjatlar taqdim etilgan.

Ushbu jurnal haqida professor D.Quvvatova soʻzga chiqdi va oʻtirganlarga jurnalning maqsad vazifasi, tahririyat a'zolari va bugungi kundagi ahamiyati haqida soʻzlab berdi.

Universitet ilmi-texnik kengashi Filologiya fakulteti Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi tashabbusi bilan "Ayniy vorislari" nomli xalqaro elektron jurnalni tasdiqlaganligi toʻgʻrisidagi qarorni taqdim etdi. Unga koʻra jurnal har ikki oyda nashr etiladi, Unda, avvalo, Sadriddin Ayniyning keng koʻlamli ijodi, shu bilan birga, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tilshunoslik, tarjima masalalari bilan bogʻliq ilmiy maqolalarni oʻzbek, tojik, rus va ingliz tillarida nashr etish nazarda tutilgan. Jurnalning nizomi ham ishlab chiqilgan. Sizdan ushbu jurnalni ta'sis etish masalasini tasdiqlab berishingizni soʻraymiz.

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: ushbu masala boʻyicha kimda qanday taklif va mulohazalar bor?

Kengash a'zolari "Ayniy vorislari" xalqaro elektron jurnalini ta'sis etish haqidagi taklif yuzasida oʻz fikrlarini bildirdilar.
Kengash raisi O.X. Xamidov ushbu jurnal haqida oʻz fikrlarini bildirib, oʻz taklif mulohazalari bilan oʻrtoqlashdi. Kengash a'zolaridan qoʻl koʻtarib munosabat bildirishlarini soʻradi.

Rozilar – 70 nafar
Qarshilar – yoʻq
Betaraflar – yoʻq

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash boʻlim boshligʻi G. Zaripovning "Ayniy vorislari" xalqaro elektron jurnalini ta'sis etish toʻgʻrisida axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolari tavsiyasiga koʻra "Ayniy vorislari" nomli xalqaro elektron jurnalni ta'sis etish taklifi ma'qullansin.
3. Ushbu qarorni tasdiqlab berishni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasidan soʻralsin.

**7.4. Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), I.I. Bakayev rahbarligida tayyorlangan "Birinchi o'zbek generali S.Raximov xotirasiga bag'ishlangan milliy video o'yin yaratish" mavzudagi innovatsion loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e'loni uchun tavsiya etish to'g'risida.**

**ESHITILDI:G.T. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i) – kengash a'zolariga Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), I.I. Bakayev rahbarligida tayyorlangan "Birinchi o'zbek generali S.Raximov xotirasiga bag'ishlangan milliy video o'yin yaratish" mavzudagi innovatsion loyiha to'g'risida ma'lumot berdi.

**So'zga chiqdilar: H.I. Eshankulov** (Axborot texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d. (PhD), dotsent) Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), I.I. Bakayev rahbarligida tayyorlangan "Birinchi o'zbek generali S.Raximov xotirasiga bag'ishlangan milliy video o'yin yaratish" mavzudagi innovatsion loyihani Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e'loni uchun tavsiya etish to'g'risidagi taklifni qo'llab-quvvatladi.

Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'ining axboroti va so'zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**1.** Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i **G.T. Zaripovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), I.I. Bakayev rahbarligida tayyorlangan "Birinchi o'zbek generali S.Raximov xotirasiga bag'ishlangan milliy video o'yin yaratish" mavzudagi innovatsion loyiha Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e'loni uchun tavsiya etilsin.

**3.** Ushbu qarorning ijrosi nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2020-yil 9-avgustdagi «Yangi 2021-2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va dolzarb vazifalar haqida»gi 3/1-son Hay'at qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga 2022-yil 6-oktybardan dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan magistrlar ro'yxati

| № | F.I.O. | Magistratura mutaxassisligi, lavozimi | Kafedra nomi | Stav-kasi |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Ganiyeva Maloxat Odilovna | Biologiya mutaxasisligi 2-bosqich magistranti | Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasi o`qituvchisi | 0.25 |
| 2. | Elmurodova Nozima Negmurodovna | Biologiya mutaxasisligi 2-bosqich magistranti | Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasi o`qituvchisi | 0.25 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Shukurova Shoxina Tuyg’unovna | Biologiya mutaxasisligi 2-bosqich magistranti | Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi kafedrasi o`qituvchisi | 0.25 |
| 4. | Nabijonov Maxammadmo‘sa Rasuljon o‘g’li | Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o`qituvchisi | 0.25 |
| 5. | Fayziyeva Safiya Alisherovna | Adabiyotshunoslik (rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 6. | Murodova Ma’rifat Maqsudovna | Adabiyotshunoslik (rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 7. | Niyozova Hilola Hayat qizi | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 8. | Xannanova Madina Ildarovna | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 9. | Xaydarov Mironshox Rustamovich | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 10. | Akramova Amiraxon Aminjonovna | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 11. | To‘xtamisheva Laylo Sanoyeva | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.5 |
| 12. | Muxammedova Baxshanda Rashidovna | Lingvistira(rus tili ) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Rus adabiyotshunosligi kafedrasi o`qituvchisi | 0.25 |
| 13. | Akramova Nasibabonu Abduraxmonovna | Turizm(faoliyat turlari bo‘yicha) 2-bosqich magistranti | Qo‘shma ta’lim dasturlarini muofiqlashtirish bo‘limi o`qituvchisi | 0.25 |
| 14. | Radjabova Marxabo Xalimovna | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |
| 15. | Teshayev Mirolim Djumayevich | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi | 0.25 |
| 16. | Sharapova Nigina Kadirovna | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |
| 17. | Xasanova Sitora Islamovna | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |
| 18. | Qobilov Jasur Mubin o‘g’li | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | magistranti | | |
| 19. | Achilova Ramziya A’zamovna | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |
| 20. | Burxonov Sardorjon Nasulloyevich | Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |
| 21. | Bahronova Dilshoda Mardonovna | Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti | Axborot tizimlari va raqamli texnologiylar kafedrasi o‘qituvchisi | 0.5 |

E’tiborlaringiz uchun rahmat, savollar bo‘lsa marhamat!

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: “**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug‘i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to‘g‘risida**” gi masala bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotga kimda qanday qo‘shimcha ma’lumot, savol, taklif-mulohazalar bor? Marhamat!

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab – quvvatladilar.

Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**1.** O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i R.G‘.Jumayevning Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug‘i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Ro‘yxatda keltirilgan magistrlarga 01.10.2022y. dan tegishli kafedradagi vakant soatlar hisobidan belgilangan tartib asosida dars soatlari ajratilsin.
**3.** Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b. R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin

---

**7.6. BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi akademik litsey pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: B. Adizov (***BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori axboroti)* kengash a’zolariga BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi akademik litsey pedago kadrlarining malakasini oshirish kurslari ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to‘g‘risida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini

takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish, ularning kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlashda o‘quv reja va dasturlarning roli katta hisoblanadi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida 2022-yil 1-sentabrdan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasining yangilangan “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 48 soatlik maxsus dasturlar bo‘yicha 24 soat hajmi ishdan ajralmagan holda 24 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Shu munosabati bilan universitet huzuridagi PKQT va MO mintaqaviy markazida akademik litseylarining matematika, fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, rus tili, xorijiy tillar(ingliz, nemis, fransuz,), tarix, davlat va huquq asoslari, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, geografiya, informatika va axborot texnologiyalari, rasm, chizmachilik rang tasvir va kompozitsiya, tarbiya fanlari professor o‘qituvchilariga mo‘ljallangan QT va MO yo‘nalishlari uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2019-yildagi yig‘ilishi bayonnomasi bilan ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2019-yil avgust oyida tasdiqlangan Namunaviy o‘quv reja va namunaviy o‘quv dasturlari asosida tuzilgan ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlari shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada oshirish maqsadida akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirishga mo‘ljallangan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2022-yil 9 sentyabdagi MO-AL-302-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va namunaviy o‘quv dasturlari asosida tuzilgan ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturlari tasdiqqa tavsiya etilmoqda.

Ishchi o‘quv rejalari va ishchi dasturlar profil kafedralar professor-o‘qituvchilari tomonidan tuzilib, tegishli taqrizlar berilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, universitet Ilmiy kengashidan akademik litsey pedagog kadrlari malakasini oshirishning 15ta yo‘nalish ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarini tasdiqlashni so‘raymiz.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov -** “BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi akademik litsey pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining 2022 yil noyabr oyidan boshlab tashkil etiladigan OTMlari qoshidagi akademik litsey pedagog kadrlari malakasini oshirish yo‘nalishlari: matematika, fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, rus tili, xorijiy tillar(ingliz, nemis, fransuz,), tarix, davlat va huquq asoslari, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, geografiya, informatika va axborot texnologiyalari, rasm, chizmachilik rang tasvir va kompozitsiya, tarbiya fanlari malaka oshirish yo‘nalishlari ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlari tasdiqlansin.
2. 2022-yil noyabr oyidan boshlab tashkil etiladigan OTMlari qoshidagi akademik litsey pedagog kadrlari malakasini oshirish kurslari ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlari asosida tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmualarini chop etishga ruxsat etilsin.
3. Tanlov fanlaridan namunaviy dasturlar, kurslar ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarining sifatli va tegishli talablar asosida tayyorlanishida mas’ullik profil kafedralar mudirlari, fan o‘qituvchilari va markazning qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim dasturlari va ilg‘or tajribani joriy etish bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklatilsin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (R.G‘.Jumayev) va mintaqaviy markaz direktori (B.R.Adizov) zimmasiga yuklatilsin.

**7.7. Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023 o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to`g`risida**

**ESHITILDI: H.T.Artikova** (BuxDU Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani) – kengash a'zolariga Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023 o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to`g`axborot berdi. Haqiqatda 2019-2020, 2020-2021 o'quv yillarida bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMI larning o'rniga faqatgina ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya nazoratlari o`tkazilganligi to`g`risida, mazkur - o'quv yilida kafedra o'quv yuklamasida bakalavr bosqichi talabalari uchun BMI larga soat ajratilmagan, SPK-Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, MVU – Mevachilik va uzumchilik, QXMS- Qishloq xo'jalik mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha), IXTY- -Issiqxona xo'jaliginitashkil etish va yuritish , BioTEX-- Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalarimiz belgilangan mutaxassislik fanlaridan davlat imtihoni topshiradilar, degan fikrlarni aytib o'tdi.

Kengash raisi yuqorida so'ralgan Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023-o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to'g'risidagi taklifini ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar.

Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023 o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to`g`risidagi qaror qabul qilinsin.
2. Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi 2022-2023 o`quv yilida kafedra bakalavr ta`lim yo`nalishlarida BMIlarini Yakuniy Davlat Attestatsiyaga o`zgartirish to`g`risidagi masalasi universitet o'quv-uslubiy kengashiga tavsiya qilinsin.
3. Ushbu kengash qarori ijrosining nazoratini o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari A.Rustamov zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.8. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: A.T. Jurayev (**Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi masala bo'yicha axborot berdi.

2021-2022 o'quv yilida jami 30 dan ortiq **xorijlik** professor-o'qituvchi ta'lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an'anaviy shaklda dars bergan bo'lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo'yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ma'ruza o'qigan professor-o'qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o'qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o'qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo'lishi ta'minlandi. Ular qatorida Vatel mehmonxona va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. **Jami 2 ming soat**ga yaqin dars xorijlik professor-o'qituvchilar tomonidan o'tildi.

2022-2023 o‘quv yilida ularning soni **60 nafar**ga etkazilishi rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib yil oxiriga qadar KOICA markaziga ikki nafar, AQSH elchixonasi tomonidan 1 nafar, Fransiya elchixonasi tomonidan 1 nafar ko’ngilli o’qituvchilarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib kafedralar tomonidan 29 avgustga qadar dars berishi rejalashtirilgan bir qator o’qituvchilarni jalb qilish nazarda tutilgan.

1-jadval

**2022-2023- o‘quv yilida dars berish jarayoniga jalb qilinishi rejlashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxati**

| | F.I.SH. | Davlati | Xorijiy OTM nomi | Ilmiy darajasi | Dars berishi rejalashtirilgan fakultet va kafedrasi | Ajratilgan soat | Fan nomi | Dars berishi rejalashtirilgan vaqt | 1 soat dars (akademik) uchun rejalashtirilgan ish haqqi miqdori ($) | Xalqaro aviachipta narxi ($) taxminiy (Borish va Kelish) | Tunash xarajatlari ($) taxminiy | Kelishuv asosida to’lanadigan ish haqi, AQSH dollarida |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kopishev Eldar Ertayevich | Qozog`iston | Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti | Dotsent | Tabiiy fanlar, umumiy va noorganik kimyo | 32 | Kimyoviy texnologiya | 17.10.2022 30.10.2022 | 10 | 1000 | 400 | 320 |
| 2 | Hristo Slavov Kyuchukov | Polsha | Votslav Universiteti | professor | Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi | 30 | Pedagogik mahorat | 20.11.2022 20.12.2022 | 15 | - | - | 450 |
| 3 | Martina Martausova | Slovakiya | Pavol Jozef Safarik Universiteti | PhD | Xorijiy tillar fakulteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi | 60 | TO'MA | 10.04.2023 30.04.2023 | 15 | 1800 | 500 | 900 |
| 4 | Markaryan Sergey Eduardovich | Rossiya Federatsiyasi | Qozon federal universiteti (KFU) | Dotsent | Qo'shma ta'lim dasturlarni muvofiqlashtirish bo'limi | 40 | Основы бухгалтерского учета | 13.11.2022 - 22.11.2022 | 15 | 1500 | 200 | 600 |
| 5 | Dashev Andrey Konstantinovich | Rossiya Federatsiyasi | Qozon federal universiteti (KFU) | Dotsent | Qo'shma ta'lim dasturlarni muvofiqlashtirish bo'limi | 40 | Теория экономического анализа | 13.11.2022 - 22.11.2022 | 15 | 1500 | 200 | 600 |
| 6 | Gruere Evan | Fransiya | Fransiya Elchixonasi | o'qituvchi | Xorijiy tillar fakulteti Fransuz filologiyasi kafedrasi | 9 oylik volontyor o'qituvchi sifatida dars o'tish | Fransuz tili | 09.10.2022 30.07.2023 | - | - | 3600 | - |

**Kengash raisi:** Ushbu masala bo‘yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo‘yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Universitet ta’lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o’quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlashni taklif etishdi.

Rozilar – 70 nafar
Qarshilar – yo‘q
Betaraflar – yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor A.T. Jurayevning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta’lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etilishi universitetda ta’lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlansin.
3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo‘lishi shartligi ta’kidlab o‘tilsin. Ularga to‘lanadigan ish haqi ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o‘zaro kelishiladigan valyutada, O‘zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to‘lovlar to‘langanidan so‘ng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri naqd ko‘rinishda yoki pul ko‘chirish orqali

mutaxassisning xorijda yoki O‘zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o‘tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2021/2022 o‘quv yili 7-son yig‘ilish bayoni asosida hisoblansin.

4. Professor-o’qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son asosida qoplansin.

5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqsadida taklif etilishi belgilangan professor-o‘qituvchilarga dars o‘tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o‘z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovinlari va kafedra mudiriga yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

---

**7.9. 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.T. Jurayev** (Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor) кенгаш аъзоларига **2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash to‘g‘risida ахборот берди.**

Xabarlaringiz bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarorining 2 bandiga asosan Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan:

ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash;

talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.

Shu bilan birga Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 6-sentyabrdagi 4/10-2/12-3 xati talabini bajarish maqsadida shuningdek bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozorida Buxoro davlat universitetining o‘rni yuqoriligi, shuningdek, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining hozirgi zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli yo‘nalishlari mavjudligini inobatga olgan holda 2022-2023 o‘quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta’lim oladigan **Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni** uchun to‘lov-kontrakt miqdorlarini tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan to‘lov-kontrakt qiymatining **1,3 baravari** miqdorida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Kengash raisi:** Ushbu masala bo‘yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo‘yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda **Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni** to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini tasdiqlashni taklif etishdi.

Buxoro davlat universitetining 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda **Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni** to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlarini belgilash to‘g‘risidagi taklifni ovozga qo‘yaman.

Rozilar – 70 nafar
Qarshilar – yo‘q
Betaraflar – yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jurayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-2023 o‘quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta’lim oladigan Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni uchun to‘lov-kontrakt miqdorlari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan to‘lov-kontrakt qiymatining 1,3 baravari miqdorida belgilansin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jurayev zimmasiga yuklansin.

---

**7.10. “Bukhsu Scientific Biotechnology” unitar korxonasi Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida.**

**ESHITILDI:O.O. Sayfulloyev***(IIITB boshlig‘i)кенгаш аъзоларига* “Bukhsu Scientific Biotechnology” unitar korxonasi Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida axborot berdi. Hamda “Universitet ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘I O.O. Sayfulloyev so‘zga chiqib, kengash a’zolariga Buxoro davlat universiteti huzuridagi “BUKHSU SCIENTIFIC BIOTECHNOLOGY” unitar korxonasi nizomi loyihasini o ‘qib eshittirdi**.**

**Buxoro davlat universiteti huzuridagi**
**“BUKHSU SCIENTIFIC BIOTECHNOLOGY”**
**unitar korxonasi**
**N I Z O M I**

**1. UMUMIY QOIDALAR.**

**1.1. “BUKHSU SCIENTIFIC BIOTECHNOLOGY”** unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda Korxona deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan tuziladi. Uning Muassisi bo‘lib Buxoro davlat universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet deb yuritiladi) hisoblanadi.

Korxonaning to‘liq nomi: “**BUKHSU SCIENTIFIC BIOTECHNOLOGY**” unitar korxonasi;

Qisqartirilgan nomi: “**BUKHSU SCIENTIFIC BIOTECHNOLOGY**” UK.

**1.2.** Korxona davlat ro‘yxatidan o‘tishi bilan yuridik shaxs hisoblanadi, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

**1.3.** Korxona yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mulkka, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, o‘z nomi yozilgan muhri, shtampi va boshqa rekvizitlarga ega bo‘ladi. Korxona o‘z faoliyatini to‘liq xo‘jalik xisobi, o‘z-o‘zini moliyaviy ta’minlash va o‘z xarajatlarini o‘zi qoplash asosida olib boradi.

**1.4.** Korxona o‘z nomidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

**1.5.** Korxona Muassisning roziligiga ko‘ra tijorat tashkilotlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan notijorat tashkilotlarda qatnashchi (aksiyador, a’zo) bo‘lishi mumkin.

**1.6.** Korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan undirilishi mumkin bo‘lgan mol-mulk bilan javob beradi.

**1.7.** Korxona o‘z Muassissining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi. Muassis korxonaning mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlikni amalga oshiradi. Korxona cheklanmagan muddatda faoliyat yuritadi.

**1.8.** Korxona joylashgan manzili: Buxoro viloyati, Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY, kadastr raqami: 20011101040166.

**2. FAOLIYAT MAQSADI VA VAZIFALARI.**

**2.1.** Korxonani tashkil etishdan asosiy maqsad universitet ilmiy salohiyatidan foydalangan holda ishlab chiqarish korxonalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda zamonaviy innovatsion muhitni va moddiy-texnik bazani shakllantirish asosida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tijoratlashtirish, O‘zbekiston iktisodiyotiga yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini

kiritish, qishloq xo‘jaligida innovatsion biotexnologiyalarni qo‘llash, shuningdek turli tijorat xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi.

**2.2.** Korxona ko‘zlangan maqsadga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- qishloq xo‘jaligida innovatsion biotexnologiyalarni qo‘llash;
- chuchuk suv akvakulturasi;
- qishloq xo‘jaligida biootexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish;
- mikroskopik va yuksak suv o‘simliklarini ko‘paytirish va ularni baliqchilikda qo‘llash;
- mikroskopik suvo‘tlarni va yuksak suv o‘simliklarini oqava suvlarni tozalashda qo‘llash;
- qishloq xo‘jaligida innovatsion biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;
- akvakultura, zoologiya, ixtiologiya, gidrobiologiya sohalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;
- baliq ozuqalarini (tabiiy va me’yorlashtirilgan) yetishtirish;
- baliqchilik xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritish;
- qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini ekish, yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish;
- hudud iqlim sharoitiga mos manzarali va mevali o‘simliklarni (bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar, buta, yarim buta, daraxt) yetishtirish, qayta ishlov berish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish va ko‘chatchiligini yo‘lga qo‘yish;
- o‘simlik va hayvon chiqindilarini qayta ishlash, biogaz va biogumus ishlab chiqarish, sotish hamda joriy qilish;
- o‘simliklar karantini va biozararlanishni oldini olish;
- baliqchilik xo‘jaliklarida ekoagroturizm va ovchilik faoliyatini tashkil etish hamda tegishli xizmatlarni ko‘rsatish;
- umumiy ovqatlanish faoliyatini tashkil etish;
- baliq kasalliklari o‘rganish va ularni davolash xizmatini yo‘lga qo‘yish;
- biotexnologiya, akvakultura, gidrobiologiya, ixtiologiya sohalarida qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va laboratoriya jihozlarini ishlab chiqarish, sotish va vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- fermer xo‘jaliklari va soha mutaxassislarining malakasini oshirish;
- baliqchilik inkubatsiya sexlarini tashkil etish, tovar baliq yetishtirish;
- baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- xorijdan naslli va mahsuldor baliq turlarini olib kelish, mahalliylashtirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, nodir va kamyob hayvon va o‘simlik turlarini muhofaza qilish, bioxilmaxillikni saqlash;
- soha bo‘yicha halqaro hamkorlik, tajriba almashish faoliyatini yo‘lga qo‘shish
- Qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish.

**2.3.** Korxona qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya olinishi kepak bo‘lgan faoliyat tuplapini tegishli litsenziyani olinganidan so‘ng amalga oshipadi.

## 3. KORXONANING HUQUQIY HOLATI

**3.1.** Korxonaning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda ushbu Nizom asosida tartibga solinadi.

**3.2.** Korxona mustaqil holda amalga oshiradigan quyidagi huquqlarga ega:

- bozor konyukturasidan kelib chiqqan holda, ko‘rsatiladigan xizmatlar, bajariladigan ishlar va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga mustaqil holda narx belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida yuridik va jismoniy shaxslar bilan turli bitimlarni amalga oshirish;
- belgilangan tartibda banklarda har qanday, shuningdek, valyuta hisob raqamlarini ochish;
- ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshirish.

**3.3.** Korxona Muassis bilan kelishgan holda o‘z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

- korxona bank kreditlari hamda ssudalaridan foydalanish;
- Muasssis ilmiy salohiyati hamda moddiy-tenik bazasidan foydalanish.

## 4. UNITAR KORXONA FAOLIYATINI BOSHQARISH.

**4.1.** Muassis quyidagi huquqlarga ega:

- korxona faoliyatining maqsadi, predmeti, turlarini belgilash;
- korxona Nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;
- korxonaga yetkazilgan zararlarni qoplash to‘g‘risida da’vo taqdim etish;
- korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;
- korxona direktorini tayinlash va vazifasidan ozod etish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lish.

**4.2. Korxona** direktori ijro etuvchi organ hisoblanadi va quyidagi huquqlar hamda vakolatlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablarini bajarishga, korxona xodimlarining mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va yaxshilashga, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi norma va qoidalarga rioya etishga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqadi va joriy etadi;
- korxonaning asosiy faoliyatini takomillashtirishga, boshqarishning eng yangi uslublarini joriy etishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko‘radi;
- korxona nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, barcha tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;
- xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalari (kontraktlari) tuzadi hamda ularni o‘zgartiradi va bekor qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;
- kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘radi;
- korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar va ko‘rsatmalar chiqaradi;
- korxonaning ichki ish tartibini va xo‘jalik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlaydi;
- korxona tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tashkil etish va nazorat qilishni ta’minlaydi;
- korxonaga yuklangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**4.3. Korxona** direktori quyidagi majburiyatlarga ega:

- korxona faoliyati to‘g‘risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmaslik;
- korxona Nizomiga va ta’sis hujjatlariga rioya qilish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq, bojxona, moliya, bank, statistika va davlat organlari hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etish;
- korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish;
- korxona faoliyati natijalari va tasdiqlangan rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi to‘g‘risida Muassisga hisobot berish.

## 5. KORXONANING USTAV FONDI MIQDORI.

5.1. Korxonaning Ustav fondi mulklar va boshqa aktivlardan iborat bo‘ladi.

5.2. Korxona Ustav fondining miqdori 10 000 000 (o‘n million) so‘mni tashkil qiladi.

5.3. Korxona Ustav fondi Muassis tomonidan pul mablag‘lari, mol-mulk, asbob-uskuna, ko‘chmas mulk va h.k.lar ko‘rinishida kiritilishi mumkin.

5.4. Korxona Muassisining qaroriga asosan Ustav fondi ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

5.5. Ustav fondini ko‘paytirish Muassis tomonidan qo‘shimcha ulush kiritish va korxonaning sof foydasi hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

## 6. KORXONANING MULKINI TASARRUF ETISH

6.1. Muassis tomonidan Korxonaga tezkor boshqaruv huquqi bilan biriktirilgan asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar Korxona mulkini tashkil qiladi.

6.2. Korxonaning asosiy fondlari va aylanma mablag‘lari bo‘linmaydi va ulushlar (hissalar, paylar) bo‘yicha taqsimlanishi mumkin emas.

6.3. Muassis korxonaga berilgan davlat mulkidan belgilangan maqsadda foydalanilishini va uning saqlanishini, shuningdek o‘zgaga berilishini nazorat qiladi.

6.4. Korxona Muassis bilan kelishgan holda Korxona mulkini quyidagi holatlarda tasarruf etishi mumkin: asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga berish; mulkni boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektning Ustav fondiga ulush sifatida kiritish; boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aksiyalarini (ulushlar, paylar) sotib olish va sotish; mulkni boshqacha tarzda tasarruf etish.

6.5. Korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan Korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

## 7. DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

7.1. Korxona daromadi:

- Mahsulot sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan daromadlar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar hisobiga shakllantiriladi.

## 8. DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

8.1. Korxonada qoladigan sof foyda barcha soliqlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin Korxona tasarrufida qoladi va undan Muassis qaroriga ko‘ra foydalaniladi.

**8.2.** Korxona ko‘rsatib o‘tilgan sof foydadan 30 (o‘ttiz) foizini har yili universitet innovatsion jamg‘armasiga o‘tkazib beradi. Sof foydaning qolgan qismidan Muassis qaroriga ko‘ra quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

- korxonaning kelgusidagi faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar xarid qilishga;
- korxona infratuzilmasini takomillashtirishga;
- korxona direktori hamda ishchi-xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga;
- universitet talabalari uchun turli grantlar va stipendiyalar ajratishga.

## 9. ZAXIRA FONDINI VA BOShQA FONDLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI

9.1. Korxona o‘z tasarrufida qoladigan sof foyda hisobiga zaxira fondini, shuningdek boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin, ularning miqdori va shakllantirish tartibi Muassis tomonidan tasdiqlanadi.

## 10. HISOBOTLAR TAQDIM ETISH TARTIBI

10.1. Korxona hisobot davri tugagach Muassisga moliya hisobotini va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarning saqlanishi va ularning davlat tomonidan saqlashga berilishi yuzasidan belgilangan tartibda javob beradi.

10.2. Korxonaning xo‘jalik sub’ekti sifatidagi faoliyatini nazorat qilish Muassis tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.3. Direktor moliya yili yakunida korxonaning faoliyat natijalari va tasdiqlangan rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi to‘g‘risida Muassisga hisobot beradi.

10.4. Hisobot davrining sof foydasidan foydalanish maqsadida korxonaning tashabbusi bilan har chorakda yoki yarim yillikda Muassisga moliyaviy natijalar to‘g‘risida operativ hisobot taqdim qilishi mumkin.

10.5. Korxona tomonidan taqdim qilingan barcha moliyaviy hisobotlar universitetning ichki audit xizmati yoki taftish komissiya tomonidan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

## 11. KORXONANING JAVOBGARLIGI

11.1. Korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mulk bilan javob beradi. Muassis Korxonaning mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlikni amalga oshiradi.

11.2. Korxona Muassis majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

## 12. KORXONANING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

12.1. Korxona Muassis bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda uning tashqarisida, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin.

12.2. Korxonaning filiallari va vakolatxonalari uning nomidan Korxona tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi.

## 13. KORXONANI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH

13.1. Korxona Muassisning qaroriga ko‘ra, tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yoki sud qaroriga binoan tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi mumkin.

13.2. Korxonani tugatish korxona faoliyatining huquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o‘tmagan holda to‘xtatilishiga sabab bo‘ladi. Korxona qayta tashkil etilgan taqdirda huquq va majburiyatlar huquqiy vorisga o‘tadi.

## 14. BOSHQA SHARTLAR

**14.1.** Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va amal qiladi.

**14.2.** Ushbu nizom korxonaning barcha xodimlari, filiallari hamda vakolatxonalari uchun majburiy kuchga ega.

**14.3.** Ushbu Nizomda hal etilmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va ta’sis hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

**14.4.** Nizom universitet kengashining 2022 yil ___ - ____________dagi yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

Kengash a’zolaridan ushbu Nizomni tasdiqlab berishishlarini so‘rayman. E’tiboringiz uchun rahmat. Savollar bo‘lsa marhamat!

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: mazkur Nizom haqida o‘z fikrlarini bildirdi. Kengash a’zolarining takliflari eshitildi. Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida tashkil etilishi rejalashtirilgan “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi nizomini tasdiqlash masalasini qo‘llab- quvvatlashdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**1.** Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i O.O. Sayfulloyevning Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida tashkil etilishi rejalashtirilgan “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi nizomini tasdiqlash to‘g‘risidagi ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

**2.** Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida tashkil etilishi rejalashtirilgan “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi nizomi tasdiqlansin.

**3.** Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli qarori 7-ilovasi 13,14 va 15-bandida keltirilgan loyihalar bajarilganligi hamda olingan natijalar amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risida**

**ESHITILDI: G. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘lim boshlig‘i, t.f.n., dotsent) kengash a’zolarini “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli qarori 7-ilovasi 13,14 va 15-bandida keltirilgan loyihalar bajarilganligi hamda olingan natijalar amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risida” gi axborot bilan tanishtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi **“2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi PQ-307-son qarorining **7-ilovasi 13-bandida** belgilangan **“Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasi) foydalangan holda uzluksiz ishlashini ta’minlash”** mavzusidagi loyihani bajarish va amaliyotga joriy etish yuzasidan moliyalashtirish qiymati **64,9 mln so‘m** belgilangan. Hozirda Geliofizika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan **Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasi) foydalangan holda uzluksiz ishlashini ta’minlash** loyihasi to‘liq ishlab chiqilib, universitet bosh kirish darvozasi oldidagi svetofor to‘liq quyosh energiyasiga o‘tkazildi, loyiha amaliyotga joriy etildi hamda mazkur maqsadlar uchun **universitet innovatsion jamg’armasi** mablag‘lari hisobidan **29,5 mln so‘m** mablag‘ ajratildi, rejalashtirilgan mablag‘larning qolgan qismi universitetining moddiy-texnik bazasi va kafedra o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatidan foydalanish hisobiga tejashga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi **“2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi PQ-307-son qarorining **7-ilovasi 14-bandida** belgilangan **“Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Online MTT” platformasini ishlab chiqish”** mavzusidagi loyihani bajarish va amaliyotga joriy etish yuzasidan moliyalashtirish qiymati 7**0 mln. so‘m** belgilangan. Hozirda Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy Web texnologiyalarga asoslangan **maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Online MTT” platformasi** (https://www.e-bogcha.uz/) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi hamda mazkur maqsadlar uchun **Buxoro viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi tarkibidagi G’ijduvon tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi** mablag‘lari hisobidan **13,5 mln. so‘m** mablag‘ ajratildi, rejalashtirilgan mablag‘larning qolgan qismi universitet Axborot texnologiyalari fakulteti moddiy-texnik bazasi hamda professor-o‘qituvchilari ilmiy salohiyatidan foydalanish natijasida tejashga erishildi. Bunda loyiha doirasida yaratilgan ilmiy ishlanmani amaliyotga joriy etish bo‘yicha Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi bilan **xo‘jalik shartnomalari** imzolandi.

Loyiha doirasida Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Online MTT” platformasini ishlab chiqish” va sinovdan o‘tkazish jarayonida olingan asosiy natijalar quyidagilar hisoblanadi:

1. G‘ijduvon tumanidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tarbiyalanuvchilar davomatini va ularning rivojlanish xaritasini yuritish uchun mo‘ljallangan zamonaviy Web texnologiyalarga asoslangan maxsus https://www.e-bogcha.uz/ platformasi ishga tushirildi;
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning davomati va rivojlanish xaritasini, tarbiyachining ish rejasini, tarbiyachi va ota-ona o‘rtasidagi muloqotni elektron tarzda yuritishni amalga oshirildi;

3. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish xaritasi ma'lumotlaridan foydalangan holda sun'iy intellekt tizimi orqali ularning maktabgacha ta'limdan keyingi yo'nalishlarini taxminiy aniqlash va tarbiyalanuvchining rivojlanish sohasi yuqori bo'lgan yo'nalishda ko'proq imkoniyatlar yaratib berildi;

4. MTT va ota-ona o'rtasida uzluksiz muloqotni ta'minlashga erishildi;

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyatni nazorat qilish va xodimlar va tarbiyalanuvchilar haqida hisobotlarni elektron tarzda qabul qilish jarayoni raqamlashtirildi.

Loyiha amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida Buxoro viloyati G'ijduvon tumani maktabgacha ta'lim bo'limi hamda universitet Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari kafedrasi mas'ul professor o'qituvchilari ishtirokida tegishli dalolatnoma tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi **"2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PQ-307-son qarorining **7-ilovasi 15-bandida** belgilangan **"Mikroskopik suvo'tlarni baliqchilikda qo'llash texnologiyasini joriy qilish"** mavzusidagi loyihani bajarish va amaliyotga joriy etish yuzasidan moliyalashtirish qiymati **120,0 mln. so'm** belgilangan. Hozirda Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan **mikroskopik suvo'tlarni baliqchilikda qo'llash texnologiyasi** ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi hamda mazkur maqsadlar uchun **"Chlorelle excel group" MChJ** mablag'lari hisobidan **40,0 mln. so'm** mablag' ajratildi, rejalashtirilgan mablag'larning qolgan qismi universitetining Ixtiologiya va biotexnologiya ilmiy markazi moddiy-texnik bazasidan foydalanish hamda fakultetda loyiha tajriba uchastkasi sifatida basseynlar qurish hisobiga tejashga erishildi. Bunda loyiha doirasida yaratilgan ilmiy ishlanmani amaliyotga joriy etish bo'yicha **"Chlorelle excel group" MChJ** bilan **xo'jalik shartnomalari** imzolandi.

Loyiha amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida **"Chlorelle excel group" MChJ** hamda universitet Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi mas'ul professor o'qituvchilari ishtirokida tegishli dalolatnoma tuzilgan.

E'tiboringiz uchun rahmat. Savollar bo'lsa marhamat!

**Kengash raisi O.X. Xamidov**: mazkur masala haqida kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a'zolari Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'ining axborotidan qoniqqanliklarini bildirishdi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi rejalashtiridlgan chora-tadbirlar bo'yicha o'z takliflarini aytib o'tishdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'I G.T. Zaripovning hamda so'zga chiqqanlarning ma'lumoti axborot uchun qa'bul qilinsin.
2. 2022-yil 6-iyuldagi **"2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PQ-307-son qarorining **7-ilovasi** 13,14 va 15-**bandida** belgilangan loyihalar yakunlanganligi va amaliyotga joriy qilinganligi qayd etilsin.
3. Loyiha yakunlanganligi va amaliyotga joriy qilinganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlar (xo'jalik shartnomalari, dalolatnomalar, kengash qarori v.b.) o'rnatilgan tartibda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etilsin.
4. Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.12. Ish jarayonlarida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo ("hayfsan")ni muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev (**o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga ish jarayonlarida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri

Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida so‘zga chiqib, Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”) uning shu davr mobaynida o‘z yo‘nalishi, lavozim majburiyati, jamoatchilik ishlaridagi faoliyati hamda yuklatilgan boshqa qo‘shimcha topshiriqlarni o‘z vaqtida ma’suliyat bilan bajarib kelayotganligini inobatga olib muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirdi.

Ushbu masala bo‘yicha universitet kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi B. Kobilov so‘zga chiqib, quyidagilarni bildirdi. Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri Nazarov Akmal Mardonovich o‘z lavozim majburiyatlarini to‘laqonli bajarib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha universitetdagi ta’lim jarayonlari sifatini oshirishda shaxsiy o‘rnak ko‘rsatganligini e’tiborga olib, udan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

Kengash a’zolari ushbu masala bo‘yicha o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Kengash raisi O.X.Xamidov kengash a’zolaridan ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish taklifini ochiq ovoz berish yo‘li bilan qo‘l ko‘tarib tasdiqlab berishni so‘radi.

Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayevning ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Psixologiya va sotsologiya kafedrasi mudiri Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a’zolarining qaroriga ko‘ra, Nazarov Akmal Mardonovichga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”) uning kafedrada olib borayotgan samarali mehnatini inobatga olgan holda muddatidan oldin bekor qilinsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig‘i U.A.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

**O.X. Xamidov (Kengash raisi)** Buxoro davlat universiteti kengashi raisi 3-yig‘ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinganligini va kengash o‘z ishini yakunlaganligini ma’lum qildi. Kengash o‘z ishini tugatdi.

**BuxDU kengashi raisi O.X. Xamidov**

**O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i M.A Tursunov**